Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 33

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

Detektiv asarda jamoaviy izquvarlik pozitsiyasi (O‘lmas Umarbekov asarlari misolida)

Sadoqatxon Adhamovna Abdusalimova*

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

✉ sadoqatabdusalimova9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Jahon detektiv va o’zbek detektiv asarlari qiyosiy miqyosda o’rganilgan jumladan O’.Umarbekovning “ Yoz yomg’iri” va “Fotima va Zuhra” asaridagi detektiv obrazi ,detektiv asar kompozitsiyasiga xos bo’lgan jihatlar jamoaviy izquvarlik pozitsiyasida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar

detektiv, izquvar obrazi, xususiy detektiv, jamoaviylik, paralell surishtiruv.

DOI: 10.5281/zenodo.23499147

Kirish. Ijtimoiy hayot, mentalitet va davr nuqtai nazaridan o’zbek adabiyotidagi detektiv asarlar anchayin farq qiladi. Ularda xususiy detektivlik faoliyatining badiiy talqini umuman uchramaydi. Boshqacha aytganda, asarlarda muntazam, davomli uchraydigan an’anaviy detektiv obrazi yo’q. Vaziyat taqazosiga ko’ra, boshiga tushgan musibatlardan alamzada bo’lib, qasoskorlik tuyg‘usi bilan detektivlik sifatlarini olgan qahramonlar (jumladan, Rahimjon Saidov, Zuhra) esa bu boshqa masala. Asosiy detektiv asarlarda huquq tartibot xodimlari jamoaviy tarzda harakat qiladilar va yomonlikning jazoga hukm qilinishi hamda adolatning tantanasi bilan yakun topadi.

Muallifning detektiv obrazini yaratish jarayonini spektrga qiyoslash mumkin. Ya’ni izquvarga xos barcha sifatlar jamoaviy obrazlarga turli darajada taqsimlab beriladi. An’anaviy tarzda ularning biri yetakchi obraz sifatida barcha kuzatish va tahlillarni umumlashtirib asosiy jinoyatni fosh qilishda liderlik vazifasini bajaradi. Bu obraz ijtimoiy-mafkuraviy bosimlarga, boshqaruv tizimidagi jinoyatchilarga hamtovoq ayrim shaxslarning tazyiqlariga, jinoyatchilar tomonidan ko’rsatilgan qarshiliklarga qaramay, aniq iroda yo’nalishiga ko’ra adolat g‘olibligini ta’min etadi.

Personajlarning bu jihatdan tarkiblanishiga ko’ra, asar tilida dialog, polilog salmoqli o’rin tutadi. Shuningdek, munozara, suhbat usuli o’rganish natijalarini jamlash, pirovarddagi vazifani aniqlash va yakdilllikda harakat qilishda katta ahamiyatga ega.

- *Xo’sh? — so’radi kapitan Munira chiqib ketgach, undan.*
- *Uyini topdim. S—5 da turar ekan. Erini ko’rdim. Kiyimlari g‘ijim, nazarimda, kechadan beri yechinmagan. Har ehtir*
- *Chekar ekanmi?*
- *Chektirdim. Sigaretni ekspertizaga berib kelyapman.*
- *Yaxshi.*

Ushbu qisqa dialogda nafaqat o’z sohasining ustasini, balki bir-birlarini so’zsiz ham tushunadigan jamoa ruhiyatini ham ko’rish mumkin. Jinoyatga oid ma’lumotlarni sir tutish uchun yolg‘iz suhbatlashish (Munira chiqib ketgach so’radi). Maqsadga yo’naltirilgan aniq savollar va oydinlashtirishga xizmat qiluvchi aniq vazifalar, ularning tezkor ijrosi detektivning kuchli sifatlarini belgilaydi.

Xonaga harbiy meditsina formasidagi to’ladan kelgan ofitser kirdi.

- *Tugatdik, — dedi u Sultonovning ro’parasiga o’tirar ekan. — Marhuma kecha kechqurun, soat yigirma to’rtlarda o’lgan. Yarim soatcha qiynalgan. Ikki joyidan — ko’kragi va qornidan pichoq yegan, boshiga o’ng chakkasi aralash og‘ir narsa bilan urilgan. Bosh suyagining orqasi darz ketgan. Xullas, haqiqiy qotillik. La’nati, urganga ham o’xshaydi, badanlarida, ayniqsa, qo’llarida ko’kargan joylari bor. Yana bir detal. Marhuma fojiadan bir soat oldin konyak ichgan. Pliski.*

G‘ulomov, gap tamom, degandek tekshirish oqibatlari solingan papkani Alievning oldiga qo’ydi.

- *Eri kechqurun qayerda bo’lgan? Aliev leytenantga murojaat qildi.*
- *Bu bilan leytenant Qodirov shug‘ullanyapti. Kapitan radiorubkani ilgagini ko’tardi.*
- *Menga starshiy leytenant Ro’zievni ulang.*
- *Ro’ziev eshitadi!*
- *O’rtoq starshiy leytenant! Tekshirish tugadimi?*
- *Tugadi.*
- *Bo’lmasa Saidovaning buyumlari va tekshirish natijalari bilan mening oldimga kiring.*
- *Xo’p, o’rtoq kapitan.*
- *Konyak ichgan, deng? Kapitan G‘ulomovga o’girildi.*
- *Ha, yuz grammcha.*
- *Demak, yengil kayfi bo’lgan?..*
- *Gavdasiga qaraganda, uncha sezilarli emas, lekin... — G‘ulomov qoshlarini chimirdi. — Ayol kishining shuncha konyak ichishiga biror sabab bo’lishi kerak.*
- *Ichirishgan, demoqchimisiz?*

—Bilmadim. Chiroyli ekan, bironta bezori ketiga tushgan bo’lishi mumkin.

- *Uni bitta deb o’ylaysizmi?*
- *Har holda murdada bitta odamning izi. Hammasi yozilgan.*

Kapitan Aliev beixtiyor vrach qo’ygan papkani ochdi va protokolga ko’z yugurtirdi.

Ma’lumki, polilog (yun. poly — «ko’p», logos — «nutq, so’z») — ikkidan ortiq shaxs ishtirok etadigan muloqot shakli bo’lib, fikrlar almashinuvi, munosabatlar va xarakterlarni ochib berishga xizmat qiluvchi badiiy nutq hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan polilog qaynoq ish jarayonini va xodimlarning o’z vazifalariga munosabatini namoyon etadi. Ofitserning ekspertiza xulosalarini aniq-ravshan bayon qilishi barobarida qotilga nafrat, qurbonga achinish hissi aks etgan nutqida adolat himoyachilarining timsoli namoyon bo’ladi. Jargonlar (la’nati), parselliyativ gap va birikmalar (*Yarim soatcha qiynalgan... Marhuma fojiadan bir soat oldin konyak ichgan. Pliski.), ritorik murojaat (Ro’ziev eshitadi!), ritorik so’roq (Demak, yengil kayfi bo’lgan?..)*to’liqsiz gap shaklidagi qisqa savol-javoblar, replikalar jinoyat qidiruv bo’limidagi xodimlarning qizg‘in muhokamali ish jarayonini ko’rsatadi. Bu polilogda detektivga hos xususiyatlar barcha xodimlarga “sochib” yuborilgan.

Mayitni chuqur tekshiruvi ofitser G‘ulomov tomonidan amalga oshirilgan va uning nutqida o’z xulosalariga nisbatan qat’iyat sezilib turadi *(Har holda murdada bitta odamning izi. Hammasi yozilgan.)* Uni savollarga bergan aniq va qisqa, ishonchli javoblaridan ham bilish mumkin. Bir vaqtda radiorubka orqali qilingan muloqot, shuningdek, xodimlar tomonidan turli faraz, taxminlarning ilgari surilishi ham jinoyatni ochish yo’lidagi faol harakatlarni ifodalaydi.

O’. Umarbekovning badiiy mahoratini ko’rsatuvchi usullar sirasida parsellyatsiyaga murojaatning ustuvorligini ko’rsatish mumkin. Bir jumla tarkibidagi bo’laklarning intonatsion jihatdan alohida gap shaklida berilish[1] usuli bo’lgan parsellyatsiya nutqning ta’sirchanligini, ifodaviyligini oshirish, she’riy asarlarda musiqiylik, ohangdorlikni ta’minlashda muhim o’rin tutadi. Yozuvchi parsellyatsiyaning ayni tabiatidan quyidagi maqsadlarda foydalangan:

-detektivlarning xarakterlarini ochishda;

- kasbiy kompetensiyasini namoyon etishda;

- jarayondagi ishchanlik kayfiyatini berishda;

- detektivning ish uslubini ko’rsatishda.

Tavsif, izoh xarakteridagi keyingi kelgan bo’laklar jinoyatga aloqador bo’lishi mumkin bo’lgan barcha detallarning batafsil o’rganilishi, soha vakillarining ishga layoqatlilik darajasini ham ko’rsatib berishga xizmat qilgan.

Detektiv adabiyotda gumondordan jinoyatchini fosh etish yo‘liga qadar shunday noverbal vositalarga murojaat orqali yurib boriladi. Tana tili muloqot tilidan farqli ravishda yolg‘on “so‘zlamaydi”. Insonning asliyatini anglashda bu juda muhim omil. Psixologlar va muayyan soha vakillari insonni uqishda undan samarali foydalanadilar. Detektiv asarda ham izquvar ko‘p o‘rinlarga unga tayanib xulosa qiladi. Muallif yoki bayonchi ham shunday jest, mimikalar vositasida kelgusi voqeliklarga ishora qilishi mumkin.

- *Mehmonni qabul qilasizmi?*
- *Iye, marhamat, marhamat!*

Olloyorov xuddi xursand bo‘lganday mashinadan tushdi, lekin o‘ynab turgan ko‘zlaridan uni vahima bosganligini kapitan darrov payqab oldi.(68)

O‘z gumonlarini oydinlashtirish maqsadida Olloyorovning xonadoniga borgan kapitan Aliyev uning o‘ynab turgan ko‘zlarini sinchkovlik bilan payqaydi va uning uyiga o‘ziga yanada ishonch bilan qadam bosadi. Badiiy adabiyotda ko‘z, nigoh bilan bog‘liq ko‘plab badiiy talqinlar bor. Ularning sirasida o‘ynab turgan ko‘zlar salbiy ma’no bo‘yog‘iga ega bo‘lib, sohibining sarosimada ekanligini, biror narsani sir tutishga urinishini, yolg‘on munosabatni anglatadi. Birgina shu tavsif Aliyevning xonadonga tashrifi «omadli» kelishiga ishora beradi.

Jinoyat yuzasidan tuzilgan ishchi guruhlardagi detektiv obrazi tahlilida xususiylikdan umumiylik sari tamoyili yetakchilik qiladi. Har bir guruh a’zolarining shaxsiy va kasbiy fazilatlari jamlangan holda umumiy detektiv modelini tashkillaydi. Voqeliklar rivojida detektivga xos sifatlar qurbonning yaqinlarida, tanishbilishlarda ham namoyon bo’lishi mumkin. “Yoz yomg‘iri” asarida Rahimjon Saidov, “Fotima va Zuhra”da Zuhra ishchi guruhga parallel tarzda surishtiruv, kuzatuv ishlarini olib boradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Qonun ustuvor bo’lgan jamiyatda guvohlarning ham, detektiv vazifasini bajarishga uringan, adolat yo’lida shaxsiy pozitsiyada kurashgan har qanday izquvarning o’z harakat chegarasi bor. O’z vakolatidan tashqaridagi faoliyatga yo’l qo’yilmaydi. Shu uchun ham Rahimjon ham, Zuhra ham voqeliklar rivojidagi muayyan o’rinda to’xtab, keyingi voqeliklar tizginini mas’ul shaxslarga tutqazadi. Bunday yondashuv bir tomondan jinoyat va jinoyatchilik bilan kurashish butun jamiyatning vazifasi ekanligi, insoniy burch, insoniylik haqidagi xulosalarni yuzaga chiqarsa, ikkinchi tomondan, adolat posbonlari har qanday holatda ham haqiqatni yuzaga chiqarishga qodirdirlar, qonun ustuvor, degan ishonchni mustahkamlash uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika / tarj. rus. — M.: Iskusstvo, 1983. — 184 s.
2. O’.Umarbekov. Tanlangan asarlar. 2-jild. Sharq NMAK bosh taxririyati, Toshkent-2005.
3. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2005.

[1] Адабиётшунослик луғати. Б.217.